

**Sport vazirligida 2024-yil uchun korrupsiyaga qarshi kurashish
tizimining amal qilishi haqida
UMUMIY HISOBOT**

**I. Tashkilotning Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi
bajarilgani to'g'risida umumiy axborot**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-yanvardagi "Yoshlar siyosati va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-18-son Farmoniga asosan Yoshlar siyosati va sport vazirligi negizida Sport vazirligi tashkil etilib, vazirlik faoliyatining ustuvor yo'nalishlari hamda tashkiliy tuzilmasi tasdiqlandi.

Yoshlar siyosati va sport vazirligining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi negizida Sport vazirligining Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat bo'limi tashkil etildi.

Vazirlikning 2024-yil 27-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi markaziy apparati boshqarma va bo'limlari nizomini tasdiqlash to'g'risida"gi 01/461-A/F-son buyrug'I bilan bo'limning Nizomi tasdiqlanib ijroga qaratildi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Davlat dasturlari va "Yo'l xaritalari" asosida vazirlikka yuklatilgan barcha vazifalar yuzasidan aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilib, belgilangan muddatlarda amalga oshirilib kelinmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi PF-200-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2023-2024-yillarga mo'ljallangan davlat dasturida vazirlikka yuklatilgan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida "Yoshlarda korrupsiyaga nisbatan toqatsiz munosabatni shakllantirish maqsadida yoshlar bilan uchrashuvlarni tashkil etish yuzasidan 2023-2024-yillarga mo'ljallangan REJA-JADVAL" ishlab chiqilib, belgilangan muddatlarda ijrosi ta'minlandi.

Davlat dasturlarida belgilab berilgan ochiq ma'lumotlar sifatida joylashtirilishi lozim bo'lgan ma'lumotlar doirasida quyidagilar vazirlikning rasmiy saytiga joylashtirildi. Xususan,

<https://gov.uz/oz/sport/pages/6247>

<https://gov.uz/oz/sport/pages/ochiqlik-darajasini-oshirish-va-baholash-pf-154-son-farmon>

<https://gov.uz/oz/sport/pages/3299-son-nizom-bo-yicha-ochiq-ma-lumotlar> ;

Bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlar hamda vazirlik va uning tarkibidagi tuzilmalardagi barcha bo'sh ish o'rinlari haqidagi ma'lumotlar vazirlikning rasmiy veb-sayti (<https://gov.uz/sport/sections/ochiq-ma-lumotlar-to-plami/>) hamda davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq

portaliga joylashtirib borilmoqda (<https://vacancy.argos.uz/vacancies/vacancy-list?organization=17389>);

Byurokratik to'siqlarni, korrupsiyaviy xavf-xatarlar va inson omilini qisqartirish maqsadida kadrlar bilan ishlash yo'nalishidagi faoliyatini <https://hrm.argos.uz> elektron bazasi orqali amalga oshirish joriy qilinib, ishga qabul hujjatlarni rasmiylashtirish, tarkibiy tuzilma, shtatlar, lavozimlar va xodimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash hamda ularga ishlov berish, kadrlar bo'yicha ma'lumotlarning elektron arxivini yuritish, rahbar kadrlar uchun belgilangan zaxiralarni shakllantirish hamda inson resurslarini boshqarishga oid boshqa raqamlashtirish faoliyati ushbu elektron platformada amalga oshirilmoqda.

Vazirlik tizimi tashkilotlari va sport ta'limi muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish hamda nazorat qilishda inson omilini qisqartirish maqsadida 2023 yilning 7 mart kuni **"ERP sport" yagona elektron boshqaruv tizimini** amaliyotga joriy etish ishlarini jadallashtirish to'g'risidagi 01/247-A/F-sonli buyruq qabul qilindi va yo'l xaritasiga asosan 24 ta yo'nalish bo'yicha xizmatlar bosqichma-bosqich yo'lga qo'yib kelinmoqda.

"ERP sport" yagona elektron boshqaruv tizimi orqali masofadan turib nazorat va xavfni tahlil qilish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Xususan, tizimdagi ma'lumotlar asosida guruhga biriktirilgan sportchi va trenerlar, razryad va unvon berilgan sportchilar, sport pasporti berilgan sportchilar, malaka sertifikati va toifasi berilgan trener, yo'riqchi-uslubchi hamda hakamlar haqidagi ma'lumotlarni masofadan turib tahlil qilish imkoniyati yaratildi.

Sport vazirligi tizimida **budjet mablag'larini maqsadli va samarali ishlatilishi ustidan monitoring va nazorat tizimini o'rnatish maqsadida** 2024-yil 12-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, Bosh prokuratura, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Sport vazirligining **qo'shma qarori qabul qilindi** hamda ushbu qo'shma qaror bilan yo'l xaritasi tasdiqlandi.

Qo'shma qaror ijrosini ta'minlash maqsadida vazirlikning 2024 yil 21 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligi tizimida davlat budjet tizimi budjetlarining mablag'larini maqsadli va samarali ishlatilishi ustidan monitoring va nazorat tizimini o'rnatish to'g'risida"gi **01/262-A/F-son** buyrug'i qabul qilindi. Mazkur buyruq bilan vazirlik tizimida budjet mablag'larini maqsadli va samarali ishlatilishi ustidan masofaviy tarzda monitoring va nazoratni olib borish bo'yicha vazirlikning **Situatsion markazi tashkil etildi.** Bunda Situatsion markaz faoliyatida mavjud axborot tizimlari, jumladan, **"xarid.uzex.uz"**, **"xt-xarid.uz"**, **"Shaffof qurilish"**, **"UZASBO"**, **"DMBAT"**, **"registr.stat.uz"**, **"ERP sport"** va boshqa axborot tizimlari hamda Hisob palatasining elektron ma'lumotlar bazasidan foydalanilmoqda.

II. Siyosat va tartib-taomillar

Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish va amalga oshirilayotgan ishlarni aniq mezonlar bo'yicha yo'lga qo'yish maqsadida mazkur soha bo'yicha yo'nalishlarni belgilab beruvchi asosiy ichki idoraviy hujjatlar yangilandi va amaliyotga tatbiq etildi. Xususan,

1. Vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati (2024-yil 25-iyundagi 01/1021-A/F-son buyruq);

2. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti (2024-yil 25-iyundagi 01/1021-A/F-son buyruq);

3. Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha nizom (2024-yil 25-iyundagi 01/1021-A/F-son buyruq);

4. Aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish reglamenti (2024-yil 25-iyundagi 01/1021-A/F-son buyruq);

5. Xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha yo'riqnoma (2024-yil 25-iyundagi 01/1021-A/F-son buyruq);

6. Kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnoma (2024-yil 25-iyundagi 01/1021-A/F-son buyruq);

7. Ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma (2024-yil 25-iyundagi 01/1021-A/F-son buyruq);

8. Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti (2024-yil 25-iyundagi 01/1021-A/F-son buyruq);

9. Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish reglamenti (2024-yil 25-iyundagi 01/1021-A/F-son buyruq);

10. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha reglament (2024-yil 25-iyundagi 01/1021-A/F-son buyruq);

11. Odob-axloq qoidolari (2024-yil 25-iyundagi 01/1021-A/F-son buyruq);

12. Davlat xaridlarini o'tkazish to'g'risidagi nizom (2024-yil 25-iyundagi 01/1021-A/F-son buyruq);

13. Odob-axloq komissiyasi to'g'risidagi NIZOM (2024-yil 25-iyundagi 01/1021-A/F-son buyruq);

14. Sport vazirligining Odob-axloq komissiyasi tarkibi (2024-yil 25-iyundagi 01/1021-A/F-son buyruq);

III. Xavf-xatarlarni baholash

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini

takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-240-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida vazirlikning barcha funksiyalari "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo'linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash Uslubiyoti"ga (ro'yxat raqami: 3383, 31.08.2022-yil) asosan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining "E-anticor.uz" platformasi orqali baholandi. Baholash natijalariga ko'ra funksiyalarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarning darajasi qarab "yuqori", "o'rta" va "quyi"ga ajratildi. Xususan, 83 ta funksiya baholanib, 6 ta funktsiyada korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori, 2 ta funktsiyada o'rta va 75 ta funksiya past darajaga ajratilgan. Yuqori va o'rta darajadagi funktsiyalardagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish yuzasidan "E-anticor.uz" platformasida Chora-tadbirlar dasturi va xavf-xatarlar yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxati avtomatik shakllantirildi.

Chora-tadbirlar dasturida belgilangan vazifalarning ijrosi o'z vaqtida ta'minlandi.

IV. Amalga oshiriladigan korrupsiyaga qarshi kurashish tartib-taomillar

Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish

Hisobot davrida Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha nizomga asosan vazirlik markaziy apparatining 69 nafar boshqaruv xodimi yillik, 13 nafar xodim ishga kirish jarayonida, 7 nafar xodim esa lavozimi o'zgarayotganda manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyani to'ldirgan. Xodimlar tomonidan to'ldirilgan deklaratsiyalar tahlil qilinganda manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlanmadi.

Bundan tashqari hududiy boshqarma xodimlari tomonidan ham manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyalarni to'ldirilishi ta'minlandi.

Korrupsiyaga qarshi qoidalarni vazirlik sharnomalariga kiritish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentabrdagi "Shartnomaviy munosabatlarni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6313-son Farmonda xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan davlat xaridlari bilan bog'liq tuziladigan shartnomalarda majburiy ravishda korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlar belgilanishi ko'rsatilgan. Shunga muvofiq barcha xo'jalik shartnomalariga korrupsiyaga qarshi shartlar kiritilgan.

Bundan tashqari xodimlar bilan tuziladigan mehnat shartnomalariga ham korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlar kiritilib, mehnat shartnomasi imzolanayotganda ularga imzo qo'ydirgan holda tanishtirilmoqda.

Vazirlik bilan shartnomaviy munosabatga kirishgan kontragent tomonidan xo'jalik shartnomalarida belgilangan korrupsiyaga qarshi shartlarni buzish holatlari mavjud emas.

Kontragentlarni tekshirish

Kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnomaga (2024-yil 25-iyundagi 01/1021-A/F-son buyruq) asosan vazirlik bilan shartnomaviy-huquqiy munosabatga kirishgan kontragentlar tekshirib borilmoqda.

Ishga nomzodlarni tekshirish

Vazirlik tizimiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma (2024-yil 25-iyundagi 01/1021-A/F-son buyruq) ishlab chiqilgan bo'lib, vazirlik tizimiga ishga qabul qilinuvchi nomzodlar mazkur yo'riqnoma talablariga asosan tekshirilmoqda. Xususan, 2024-yil davomida ishga qabul qilingan 13 nafar nomzodlar haqidagi hujjatlar o'rganilib, ularga ijobiy xulosa berilgan.

V. Ta'lim va kommunikatsiya

Vazirlik va tizim tashkiloti xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilim va ko'nikmalari doimiy ravishda oshirib borilmoqda. Xususan, Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy nazorat bo'limi tomonidan "Yoshlarda korrupsiyaga nisbatan toqatsiz munosabatni shakllantirish maqsadida yoshlar bilan uchrashuvlarni tashkil etish yuzasidan 2023-2024-yillarga mo'ljallangan REJA-JADVAL" hamda "Sport vazirligining hududiy va soha (tarmoq)lar kesimida 2024-yil uchun aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir CHORA-TADBIRLAR REJASI" ishlab chiqilib, unga muvofiq targ'ibot tadbirlari amalga oshirib kelinmoqda. Bundan tashqari xodimlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida turli xil targ'ibot materiallari ishlab chiqilib, xodimlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish maqsadida davra suhbatlari tashkil qilindi.

2024-yilning o'tgan davrida **vazirlik markaziy apparatining 85 nafar** boshqaruv xodimlari, **1642 nafar** hududiy sport boshqarmalarining rahbar va xodimlari hamda sport ta'lim muassasalarining rahbar xodimlarining **Huquqni muhofaza qilish akademiyasining edu.proacademy.uz** plarformasida **"Korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish masalalari"** mavzusida **12 soatlik** o'quv kurslarida ishtirok etishi ta'minlandi.

Shuningdek, **55 nafar** xodimlar Adliya vazirligi huzuridagi **Yuristlar malakasini oshirish markazining** uzluksiz kasbiy rivojlantirish platformasida **"Manfaatlar to'qnashuvi holatlarini aniqlash, ularni bartaraf etish hamda oldini olish"** mavzusida masofaviy kurslarda ishtirok etishi ta'minlandi.

VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakatlar va huquqbuzarliklar to'risidagi xabarlar

Sport vazirligiga 2024 yilda korrupsiya faktlariga doir jami **60 ta** murojaat kelib tushgan. Ushbu murojaatlarning **21 tasi** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi, **5 tasi** Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, **10 tasi** pochta orqali, **5 ta** murojaat boshqa davlat organlari orqali kelib tushgan bo'lsa, **19 ta** murojaat esa bevosita vazirlikka kelib berilgan. Vazirlikning **@YSSV_antikorbot** orqali hech qanday murojaat kelib tushmadi.

Mazkur murojaatlarning **4 tasi Jizzax viloyati**, **9 tasi Buxoro viloyati**, **1 tasi Qoraqalpog'iston Respublikasi**, **21 tasi Toshkent viloyati**, **6 tasi Surxondaryo viloyati**, **2 tasi Navoiy viloyati**, **1 tasi Samarqand viloyati**, **5 tasi Farg'ona viloyati**, **2 tasi Xorazm viloyati**, **1 tasi Namangan viloyati**, **6 tasi Toshkent shahar** va **1 tasi Tojikiston Respublikasidan** kelib tushgan.

Mazkur murojaatlar belgilangan tartibda ko'rib chiqildi va **21 tasi** o'z tasdig'ini topmadi, **8 ta** murojaat yuzasidan tushuntirish berilgan, **1 ta** murojaat takroriy bo'lganligi uchun tugatilgan, **21 ta** murojaatni o'rganish natijalari yuzasidan to'plangan hujjatlar huquqiy baho berish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborildi, O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni 25-moddasiga asosan **4 ta** murojaat Bosh prokuraturaga, **1 ta** murojaat Adliya vazirligiga yuborildi, **4 ta** murojaat anonim deb topilgan. O'rganish natijalariga ko'ra **3 nafar** xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasi bekor qilindi hamda **93 nafar** xodim bilan profilaktik suhbatlar o'tkazildi.

Yuqoridagi murojaatlarni ko'rib chiqish jarayonida aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha tegishli vazifalar belgilab olindi va ularni amalga oshirish bo'yicha tegishli mas'ullarga aniq topshiriqlar berildi.

VII. Monitoring va nazorat

Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini monitoring va nazorat qilish maqsadida joriy yilning 10-yanvar kuni nazorat rejasi ishlab chiqildi.

Mazkur nazorat rejaga asosan tizim tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qabul qilingan ichki idoraviy hujjatlarga rioya qilinishi yuzasidan "Korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti" (2024-yil 25-iyundagi 01/1021-A/F-son buyruq)ga asosan doimiy ravishda korrupsiyaga qarshi talablarning bajarilishi monitoring qilib borilmoqda va ularning ijrosi bo'yicha nazorat tadbirlari tashkil qilib kelinmoqda. Xususan, joriy yilning 1-choragi davomida vazirlik markaziy apparati xodimlarining mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi shartlarning kiritilganligi monitoring qilindi. Monitoring natijasida barcha mehnat shartnomalariga korrupsiyaga qarshi shartlar kiritilganligi va xodimlar ushbu

shartlar bilan imzo qo'ydirgan holda tanishtirilayotganligi aniqlandi. Bundan tashqari joriy yilning **fevral** oyida **Farg'ona viloyati** Uchko'prik tumani sport maktabida, **mart** oyida **Toshkent viloyati** Bo'ka tumani hamda **Surxondaryo viloyati** Denov tumani sport maktablarida, **aprel** oyida **Qashqadaryo viloyati** sport boshqarmasi va sport ta'lim muassasalarida, **may** oyida **Buxoro viloyati** Olot, Jondor, Shofrikon tumanlari sport maktablari hamda G'ijduvon tumani davlat ixtisoslashtirilgan sport-maktab internatida, shuningdek **Xorazm viloyati** Shovot, Yangibozor, Gurlan, Xiva tumani sport maktablari va Yakkakurash sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabida, **iyun** oyida esa **Samarqand viloyati** Toyloq tumani, Samarqanda shahar 2-son, Urgut tumani 1,2-son, Pastdarg'om tumani 1,2-son, Samarqand tumani 2-son sport maktablari va Yakkakurash sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabida, **iyul** oyida Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirligi hamda O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filialida, **noyabr-dekabr** oylarida Suv sporti turlari bo'yicha Respublika oliy sport mahorati maktabida, **dekabr** oyida Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani 2-son sport maktabida monitoring-nazorat va o'rganish tadbirlari o'tkazildi. Tadbirlar davomida xodimlarning odob-axloq qoidalariga, korrupsiyaga qarshi qabul qilingan ichki idoraviy hujjatlarga rioya qilinishi hamda xodimlar tomonidan ushbu hujjatlarda belgilangan tartib-tamoyillardan xabardorligi o'rganildi.

Shuningdek, tizim tashkilotlarida **51 ta so'rovnoma** o'tkazildi.

VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari

2024-yilda 7 ta xizmat tekshiruvi o'tkazildi. Xizmat tekshiruvi natijasida **1 mlrd 526 mln.** so'mlik moliyaviy xato va kamchiliklar aniqlandi. Xizmat tekshiruvi natijasida to'plangan hujjatlar huquqiy baho berish uchun Bosh prokuraturaga yuborildi. Shuningdek 2 nafar rahbar xodimlar bilan mehnat shartnomasi bekor qilindi, 6 nafar xodimga intizomiy jazo chorasi qo'llanildi.

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi markazlashgan masofaviy audit avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali yuborilgan risklar orqali Navoiy viloyati Gimnastika sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabida joriy yilning 5 aprel kuni o'tkazilgan 19 977 491 so'mlik davlat xaridi noto'g'ri o'tkazilganligi aniqlanib, ushbu xarid bekor qilindi.

Shuningdek, 2024-yilda tizim tashkilotlari tomonidan umumiy qiymati **13 mlrd. 588 mln.** so'mlik jami **32 ta** tanlov jarayonlari "Raqobat to'g'risida"gi hamda "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunlar talablariga zid ravishda o'tkazilganligi aniqlandi.

Shundan, **3 mlrd. 203 mln.**so'mlik **4 ta** xarid jarayonlari Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining taqdimnomasiga asosan, qolgan **10 mlrd. 385 mln.** so'mlik **28 ta** tanlov jarayonlari **Korrupsiyaga qarshi kurashish va huquqiy**

nazorat bo'limi tomonidan etender.uzex.uz platformasi orqali masofaviy o'rganishda noto'g'ri o'tkazilganligi aniqlangan.

Hududlar kesimida: Qoraqalpog'iston Respublikasida (Nukus tumani sport maktabida 1 ta xolatda 452,3 mln.so'm, Mo'ynoq tumani sport maktabida 1 ta xolatda 22,0 mln.so'm), Andijon viloyatida (Andijon olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazida 2 ta xolatda 3 395,0 mln.so'm), Buxoro viloyatida (Yakkakurash sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabida 1 ta xolatda 0,1 mln.so'm, Vobkent tumani sport maktabida 2 ta xolatda 493,6 mln.so'm, G'ijduvon tumani sport maktabida 2 ta holatda 300,0 mln.so'm), Jizzax viloyatida (Gimnastika sport turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabida 1 ta xolatda 24,1 mln.so'm, Zarbdor tumani sport maktabida 1 ta xolatda 60,0 mln.so'm, Sh.Rashidov tumani sport maktabida 2 ta xolatda 100,0 mln.so'm), Navoiy viloyatida (Sportning o'yin turlari va yengil atletikaga ixtisoslashtirilgan sport maktabida 1 ta xolatda 167,0 mln.so'm, Sportning suv turlariga ixtisoslashtirilgan sport maktabida 1 ta xolatda 77,5 mln.so'm, Gimnastika sport turlariga ixtisoslashtirnilgan sport maktabida 1 ta holatda 19,9 mln.so'm), Samarqand viloyatida (Narpay tumani sport maktabida 1 ta xolatda 108.6 mln.so'm, Samarqand shahar 2-son sport maktabida 1 ta xolatda 141,0 mln.so'm), Toshkent viloyati (Chirchiq olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazida 1 ta xolatda 134,5 mln.so'm), Xorazm viloyatida (Urganch olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazida 1 ta xolatda 1 665,2 mln.so'm, Xiva shahar olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan maktab-internatida 1 ta xolatda 1 294,0 mln.so'm, Urganch dzyudo sport mahorati maktabida 1 ta holatda 89,9 mln.so'm), Toshkent shahrida (Sportning o'yin turlari va yengil atletikaga ixtisoslashtirilgan sport maktabida 2 ta xolatda 198,1 mln.so'm, Respublika Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazida 3 ta xolatda 861,4 mln.so'm), Sirdaryo viloyati (Guliston olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazida 2 ta xolatda 3 300,0 mln.so'm), Namangan viloyati (Norin tumani sport maktabida 1 ta xolatda 77,0 mln.so'm), Surxondaryo viloyati (Guliston olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazida 2 ta xolatda 606,4 mln.so'm)ni tashkil etadi.

Mazkur xarid jarayonlarini bekor qilish va qaytadan tanlov o'tkazish bo'yicha ko'rsatmalar yuborildi. Yuborilgan ko'rsatmalar natijasida 30 ta tanlov jarayonlari bekor qilingan. 2 ta holatda esa, ya'ni Andijon olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi va Xiva shahar olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan maktab-internati tomonidan o'tkazilgan tanlovlar bo'yicha shartnoma tuzilgan. Mazkur 2 ta holat bo'yicha to'plangan hujjatlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborildi.

IX. Xulosalar

Vazirlik va uning tarkibiy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi yaxshi yo'lga qo'yilgan. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturi va chora-tadbirlar dasturida belgilangan ishlar doimiy ravishda bajarilib kelinmoqda va ularning bajarilishi nazorat qilinmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvar kunidagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-81-sonli qaroriga asosan Vazirlik tizimida tegishli ishlar olib borilmoqda.

X. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar va tadbirlar rejasi

Joriy yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha kompleks va tizimli chora-tadbirlar "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun, mazkur yo'nalishda qabul qilingan Davlat dasturlari va boshqa dasturlarning samarali ijro etilishini ta'minlash, korrupsiyaning holati hamda tendensiyalaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi rejalashtirildi. Bunda asosiy e'tibor:

- ✓ xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ularda korrupsiyaga nisbatan muhosasiz munosabatni shakllantirish;
- ✓ vazirlik va uning tarkibidagi tuzilmalar faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- ✓ korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarliligi prinsipini ta'minlash;
- ✓ ochiq ma'lumotlar sifatida rasmiy sahifalarda joylashtirilishi lozim bo'lgan ahamiyatga molik ma'lumotlarni o'z vaqtida belgilangan ro'yxat asosida joylashtirilishini nazorat qilish;
- ✓ jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan, korrupsiya faktlariga doir murojaatlarini qonuniy ko'rib chiqib, ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralarini ko'rish.

Mazkur yo'nalishlar bo'yicha ishlarni to'laqonli va sifatli bajarish hisobot yili yakuniga ko'ra vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi baholash ko'rsatkichlarining yanada yaxshilanishiga xizmat qiladi.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish
va huquqiy nazorat bo'limi boshlig'i**



D.Buxarov